

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Sabirova Umida OLIIY TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH MODELI.....	5
2. Fayzieva Farogat MA'LUMOTLAR TO'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA.....	13
3. Mardiyeva Malika XX-XXI- ASRLARDA ISLOM MADANIYATIDAGI GENDER MUNOSABATLARI.....	23
4. Махмудова Малика ОПТИМИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	30
5. Tagaymutatova Gulchehra RAQAMLI TEXNOLOGIYANING INNOVATSION OLIIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	38
6. Shukurova Sevara OIV EPIDEMIYASI BILAN KURASHDA KOMPLEKS YONDASHUV TIZIMI.....	44
7. Razzakova Nargis JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI.....	51
8. Samadov Shohzod JAMIYATDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV RIVOJIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AHAMIYATI (sotsiologik yondashuv).....	59
9. Kadirov Mirsulton IJTIMOIIY-MADANIY SOHADAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARI.....	66
10. Kasimov Abdumavlon MAHALLIY BUDJET IJROSI USTIDAN DEPUTALIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI.....	80
11. Usmonova Rohila AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI.....	87
12. Samadov Shohzod YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI (Fuqarolik jamiyati institutlari misolida).....	95

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Razzakova Nargis,
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti,
Ijtimoiy ish kafedrası o‘qituvchisi
e-mail: nargisrazzakova2020@gmail.com

JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘ZGARISH DINAMIKASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14187674>

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyat va oilani mustahkamlash bo‘yicha ma‘lumotlar asosiy o‘rinda ko‘rsatilgan. O‘zligimizga qaytish, milliy urf-odatlarimizni e‘zozlash azaliy qadriyat sifatida ochib berilgan. O‘z ma‘naviy hayotini va kelajagini qurayotgan yoshlarni hayot yo‘llarida oila va jamiyatni o‘rni, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi fikrlar yoritilgan. Shuningdek, salbiy illatlar tahsirida jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi, inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi katta ekanligi ta‘kidlangan. Chunki, oilaning nosog‘lomligi, noqobil va nizoli oilalar, ajralishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyonlar yetkazadi. Xotin-qizlarga nisbatan tajovuz, zo‘ravonlik, kamsitish va haq-huquqlarini poymol etilishi, erta turmush hamda erta tug‘riq bo‘yicha o‘rganilgan statistika natijalari asosida tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, oila, xotin-qizlar, tadqiqotlar, zo‘ravonlik, oilaviy munosabatlar, oilani turlari, xalqaro tajriba, shaxs, salbiy illatlar, jamiyat va oila.

Раззакова Наргис,
Национальный Университет Узбекистана
Факультет социальных наук,
Преподаватель кафедры социальной работы
e-mail: nargisrazzakova2020@gmail.com

ДИНАМИКА ИЗМЕНЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

Автор в своей статье анализирует современные процессы изменения, которые наблюдаются в институте семьи. Отмечается доминирование в местном обществе почитание издревле национальных ценностей, которые выступают как фактор идентичности. Также освещается роль семьи и общества в жизненном пути молодых людей, строящих свою духовную жизнь и будущее, а также мнения по улучшению условий их жизни. Подчеркивается наличие различных негативных факторов, которые тормозят прогресс общества. В этом

отношении значителен вклад семьи в возникновение социальных сил, препятствующих возникновению кризисов. Отмечено, что социально нездоровая семья, в которой высок конфликтный потенциал, является благоприятной почвой для роста числа разводов. Все это наносит обществу различный экономический и социальный ущерб. В статье дается авторский анализ статистической информации по случаям агрессии, насилия, дискриминации и нарушения прав женщин, ранних браков и ранних родов.

Ключевые слова: общество, семья, женщины, исследования, насилие, семейные отношения, типы семьи, международный опыт, личность, негативные пороки, общество и семья.

Razzakova Nargis,

National University of Uzbekistan Faculty of Social Sciences,
Lecturer at the Department of Social Work
e-mail: nargisrazzakova2020@gmail.com

DYNAMICS OF CHANGES IN FAMILY RELATIONS IN THE PROCESS OF MODERNIZATION OF SOCIETY

ABSTRACT

The author analyzes the modern processes of change observed in the family institution in his article. The dominance of the ancient veneration of national values, which act as a factor of identity, in the local society is noted. The role of family and society in the life path of young people building their spiritual life and future, as well as opinions on improving their living conditions are also highlighted. The presence of various negative factors that hinder the progress of society is emphasized. In this regard, the contribution of the family to the emergence of social forces that prevent the emergence of crises is significant. It is noted that a socially unhealthy family with a high conflict potential is a fertile ground for an increase in the number of divorces. All this causes various economic and social damage to society. The article provides the author's analysis of statistical information on cases of aggression, violence, discrimination and violation of women's rights, early marriages and early births.

Key words: society, family, women, research, violence, family relations, types of family, international experience, personality, negative vices, society and family.

KIRISH

Oila institutini o'rganish murakkab va ko'p qirrali yondashuv hisoblanadi. 1859 yilda "Boston Kuaterli Revg'yu" jurnali tahririyati xodimlaridan biri shunday deb, prognoz qilgani XXI asrga kelib o'z tasdig'ini topmoqda: "Eski ma'nodagi oila hayotimizdan yo'qolmoqda, va bu nafaqat institutlarimizning erkin xarakteriga xavf soladi, balki jamiyatimizning mavjudligini ham xavf ostida qoldiradi" [1, – C.42]. Natijada, bir asr o'tib, 1980 yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushunchasini siyosiy jihatdan muhokama qildi. 1986-yilda Margaret Tetcher xotin-qiz kontservatorlar Konferentsiyasida: "Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va xotirjamligidan boshlanadi" [2], deb erkinligini targ'ib etgan edi. Biroq, o'sha paytdayoq oila, oila institutining tushkun holatini keskin tanqid qilib, hatto, bora-bora uning yo'qolib ketishini bashorat qilishgandi [3, – C.459].

Rimliklarda "oila" so'zi dastlabki mulk egasiga bo'ysunadigan shaxslar (bu shaxslar mulkning bir qismi hisoblangan, mulk egasining o'z bolalari, xotini asir, sotib olingan yoki meros bo'lib o'tgan qullar ham shu hisobga kirgan) majmuasini bildirgan. "Ota" so'zi ham dastlab hozirgi ma'nodagi otani emas, balki o'ziga qarashli oila xo'jaini yoki egasi, degan so'zni anglatgan. Ko'p zamonlar oila jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy hujayrasi bo'lib kelgan, dastlab, ishlab chiqarish jamoasi bo'lgan. Biroq, u bu funktsiyani asta-sekin yo'qota borgan. Shuningdek, oilaning dastlabki mulk va iste'mol chiqaruvchi hisoblangan funktsiyasi hozirga qadar saqlanib qolgan. Ammo ijtimoiy maishiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi uning ahamiyatini biroz kamaytirmoqda.

METODOLOGIYA

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 16-moddasiga muvofiq “Oila – jamiyatining tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli” [4]. Deklaratsiyada oilaning bunday ta’riflanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida rasmiy ravishda o‘z aksini topdi.

Oila bir qancha turlarga bo‘linadi. Mahlumki, oila tashkil bo‘lishiga erkak bilan ayol o‘rtasidagi nikoh birligi asos bo‘ladi. Ana shu nikohga asosan oila 3 guruhga bo‘linadi:

1. Poligam, ya’ni ko‘p nikohli oila. Bunday oilada bir erkak, bir nechta ayol bilan nikohda turishi, oila qurishi mumkin.

2. Monogam - bir nikohli oila, yahni bir erkak bir ayol bilan nikohda turadi.

3. Qayta tuzilgan – ikkinchi nikohli oila.

O‘z navbatida oilalar unda yashovchi oila a’zolarining tarkibiga qarab 2 ga bo‘linadi:

1. oddiy (nuklear) oila. Bunday oila turi eng ko‘p tarqalgan. Unda er-xotin nikohga kirmagan, ya’ni oila qurmagan farzandlari bilan birga yashaydi;

2. murakkab (ko‘p bo‘g‘inli) oila. Bunday oilada 2 yoki undan ortiq avlod vakillari birga yashaydi. Xususan, ota-ona oila qurgan farzandi bilan birga yashaydi [5,126-127].

Guruh yoki guruhiy oila – bir necha opa-singillar boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishishi nazarda tutiladi. Bunday ayollar yoki o‘z qavmidan bo‘lgan erkakka yoki tamoman begona urug‘ning vakili bo‘lmish erkakka turmushga chiqishi mumkin. Biroq avlodning kelib chiqishi onalik urug‘iga bog‘langan bo‘lib, otalikni belgilash holatlari inobatga olinmagan. S.Golodning yozishicha onadan tarqagan avlodlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xam ko‘pgina xalqlarda saqlanib kelgan.

Juftlik oila – alohidan, bir-biriga unchalik yaqin bo‘lmagan yoki mutlaq begona 2 kishi o‘rtasidagi nikohni nazarda tutgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlar har doim ham mustahkam bo‘lmagan va tomonlarning xohish-irodasiga ko‘ra u istalgan vaqtda barbod bo‘lishi ham mumkin. Xozirda mavjud bo‘lgan oilalarda shaklan shu model saqlab qolingan [6,5].

ASOSIY QISM

Hozirda, Jahon statistikasi “Oila” tushunchasi bilan birga “uy xo‘jaligi” tushunchasidan ham foydalaniladi. Unda aholining oilaviy holati haqidagi ma’lumotlar uy xo‘jaliklari bo‘yicha to‘planadi. “Uy xo‘jaligi” birga xo‘jalik yurituvchi, birga yashovchi kishilarni biriktiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy yacheykadir [7, – C.39].

Aksariyat tadqiqotchilar oilaviy stressni ijtimoiy muhit (vaziyat)ning oila a’zolari imkoniyatlaridan oshib ketgan va ushbu oilaviy qadriyatlar yo‘qotilish xavfiga olib keluvchi turli talablarga nisbatan salbiy hissiyotlar va umumiy bosim ostida qolish sifatida ta’riflaydi [8, – C.154]. Bundan tashqari tadqiqotchilar oilaviy stressni gomeostaz va oilaning ichki barqarorligini buzuvchi, uzoq muddatli moslashishni talab qiluvchi hamda oila tuzilmasi darajasidagi o‘zgarishlarga olib keluvchi makrovoqea (xavfli vaziyat) sifatida belgilaydi. Faqat ba’zi olimlar oilaviy stressga birlamchi tartibni moslashtirishi zarur bo‘lgan mikrovoqea, deb qaraydi.

Xorijlik mutaxassislar L.Laux va H.Weberlar “Oilaviy stress” deganda oilada sodir bo‘layotgan va o‘z ichiga kundalik ziddiyatlarni olgan makro va mikro voqealarga affektiv reaksiya (munosabat)lar tushunilishini qayd etishgan [9, – C.157].

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida boshqa xorijlik olimlar S.Hobfoll, C.Spilberger, P.Bosslar “Oilaviy stress”ni individual stressning oilada davomi sifatida belgilab, unda atrof-muhit oila a’zolarining individual va jamoaviy resurslariga yuqori talablar qo‘yilishi natijasida, resurslarning noo‘rin sarflanishiga olib keladi va oila farovon va tinch yashashiga xavf soladi. Oilaviy stress oila barqarorligiga xavf solish demakdir [10, – C.69-72].

Ba’zi adabiyotlarda oilaviy stress va qiyinchiliklar nazariy jihatdan tavsiflangan.

2000 yildi oilaviy stresslarga bag‘ishlangan tadqiqot nemis olimi G.Bodenmann tomonidan o‘tkazilgani aniqlangan [11, – C.69]. Ushbu tadqiqotning natijasiga ko‘ra, tegishli so‘rovnomada ishtirok etgan er-xotinlarning 60% er-xotin munosabatlar bilan bog‘liq stressni boshidan kechirishini qayd etishgan, ulardan 11% erkaklar va 14% ayol bu stress kuchliligiga urg‘u bergan. 34% ayol va

48% erkak bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq stressni o'rta bosimda, deb baholashgan, biroq, ulardan 14% ayol va 11% erkak bu turdagi stress kuchli, deb hisoblashgan. Oila kattaligi, ya'ni bobo-buvi, aka-ukalar, opa-singillar bilan bog'liq stress 12% ayol va 5% erkakda kuzatilgani aniqlangan.

P.George, S.Neegartenlar oilada bo'lgan o'zgarishlar normativligi mezonini ishlab chiqqan.

Bular:

1) umumiylik;

2) kutilganlik (oilalar bunday qiyinchiliklar paydo bo'lishini, jumladan bola tug'ilishi, bolaning o'smirlik yoshi va boshqa jihatlari);

3) qisqa vaqt ichida bo'lishi.

Bunda, o'smir bola shaxsini 2 ta teng bo'lgan tendentsiyalar mavjudligi bilan ajratilgan: birinchisi, rivojlanishning yoshga oid vazifalari bilan bog'liq mustaqil bo'lishga intilish, ikkinchi tomondan esa xavfsizlik, himoyalanganlik va ishonchni ta'minlovchi ota-onadan psixologik qaramlikni saqlab qolishga intilish [12, – C.13-22]. Demak, garchi o'smirning ota-onasidan psixologik qaramligi, uning liberal faoliyatiga monelik qilishi kuzatilishi mumkin.

H.I.McCubbin qiyinchiliklarga oilaviy moslashishni tavsiflovchi

3 xil oila resursini ajratgan:

a) Oila a'zolarining shaxsiy resurslari. Oila a'zolarining individual xususiyatlari bilan belgilanib, 4 ta komponentidan tashkil topgan:

- Moliya;

- Tahlim darajasi;

- Sog'liq;

- Psixologik resurslar – o'zini hurmat qilishi, o'zining samaradorligi.

b) Oilaning ichki resurslari. O'z ichiga oilaviy birdamlik va oilaviy uyg'unlikni oladi. O'zgarishlar vaqtida yaxlit tuzilma sifatida faoliyat yurituvchi oilalar hayot qiyinchiliklarga moslashishda samarali hisoblanadi;

v) Oilaning tashqi resurslari. Emotsional qo'llab-quvvatlash, hurmat, o'zaro iliq munosabatini ta'minlovchi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Ushbu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash turli salbiy ta'sirlardan "bufer" bo'lib xizmat qilib, stress o'tishi bilan oilani optimal reabilitatsiya qilishga ko'maklashadi.

Oila a'zolarining shaxsiy, ichki va tashqi resurslari oila mustahkamligi yoki mo'rtligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqacha aytganda, bir butun bo'lishda ham ruxan, ham mahnan to'liq bo'lish juda zarur. Qisman bo'shliq bo'lsa ham oilani mustahkamligiga salbiy tahsir qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilarining fikriga ko'ra oilaning stress oldida zaifligini kamaytiruvchi qo'yidagi chora-tadbirlar orqali asosiy 5 ta omil mavjud:

1) Muammoni bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar orqali yengib o'tish;

2) oiladagi o'zaro munosabatlar va o'z mavqeidan qoniqish;

3) emotsional qo'llab-quvvatlash;

4) sog'liq;

5) yaxshilikka umid qilish [13, – C.99].

Nazarimizda ushbu 5 ta olim ham takomil emas, aslida oilaning stress oldida zaiflikni kamaytirish uchun murosai-madora oltinchi omil sifatida qayd etish mumkin bo'ladi.

1-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlarida erta turmush qurish sabablari [14]

T.r	Mamlakat nomi	Erta turmush qurish sabablari
1.	Markaziy Afrika Respublikasi	Kambag'allik darajasining yuqoriligi, gender normalarining o'rnatilmaganligi, erkak tomonidan kuchli bosim o'tkazilishi, zararli diniy qadriyatlar, ayollarning bilimsizligi.
2.	Bangladesh	Kambag'allik, ta'lim darajasining pastligi, gender normalar va oilaviy maqomga katta urg'u

		berilishi, ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka oddiy holat sifatida qarashi.
3.	Mozambik	Kambag‘allik, zararli an‘anaviy odatlar: ko‘p xotinlik ko‘plab jamoalarda ustunlik qiladi va bolalar nikohi bilan o‘zaro bog‘liq, an‘anaviy gender normalar qizlarning bokiraligiga yuqori baho berib, qishloqlarda voyaga yetmaganlar nikohini abadiylashtirishga yordam beradi, ta‘lim darajasining pastligi.
4.	Efiopiya	Ta‘lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilmaganligi, an‘anaviy qarashlar, an‘anaviy zararli urf-odatlar, ijtimoiy maqom, mustaqil nikoh.
5.	Braziliya	Kambag‘allik darajasining yuqoriligi, gender normalar o‘rnatilganligi, tashabbuskorlik: ba‘zi qizlar nikohni usullaridan deb biladi. Ba‘zan qizning uydan chiqib ketishi va turmush qurish tanlovi ota-onalarning repressiyadan kelib chiqqan isyon sifatida qabul qilinadi, bu esa ularning oilaviy obro‘sigga bo‘lgan xavotiri va qizlarning nikohdan tashqari homilador bo‘lish xavotiri bilan bog‘liq.
6.	Pokiston	Ta‘lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilganligi, diniy qarashlar va zararli urf-odatlar, oilaviy maqomning ustunligi: nikoh ota-onalar tomonidan qizlar uchun belgilanadi.
7.	Indoneziya	Kambag‘allik, ta‘lim darajasining pastligi, gender normalar va oilaviy maqomga katta urg‘u berilishi.
8.	Meksika	Ta‘lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilganligi, diniy qarashlar, zararli urf-odatlar, oilaviy maqomning ustunligi, qizlar savdosining avj olganligi.
9.	Rossiya	Jinsiy aloqaga bo‘lgan moyillikning keskin ortishi.
10.	Markaziy Osiyo Mamlakatlari	Ta‘lim darajasining pastligi, gender normalar o‘rnatilmaganligi, diniy qarashlar va zararli urf-odatlar, oilaviy maqomning ustunligi, qizlar savdosi va qizlarni o‘g‘irlashning avj olganligi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dunyoning ayrim mamlakatlarida erta turmush qurish sabablari va omillarini Markaziy Afrika Respublikasida Kambag‘allik darajasining yuqoriligi, gender normalarining o‘rnatilmaganligi, erkak tomonidan kuchli bosim o‘tkazilishi, zararli diniy qadriyatlar, ayollarning bilimsizligiga sabab birinchidan aholining dunyoqarashi, fikrlashi, bir – biriga bo‘lgan munosabati namunali tarzda emasligidir. Ikkinchidan, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tomonlama inson omilining shakllanish darajasi talab darajada emasligi. Uchinchidan aholi qatlami rivojlanish suratlari emas, aksincha nochorlikdan qutilish maqsadida ish tutishi ortidan ushbu nohush holatlar yuzaga kelmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda erta turmush qurishning oldini olish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, bu borada YUNISEF 5 ta muhim vazifani belgilab olgan:

1. O‘smirlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar nikohi xavfi ostida bo‘lgan qizlar uchun imkoniyatlar va resurslarni kengaytirish.

2. O'smirlar huquqlarini himoya qiladigan qulay muhit yaratish uchun huquqiy bazani mustahkamlash.

3. Targ'ibot, dasturlash, o'qitish va taraqqiyotni kuzatish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratish va ulardan foydalanishni kengaytirish.

4. Voyaga yetmaganlar nikohi xavf ostida bo'lgan yoki ushbu nikoh ta'sirida bo'lgan o'smirlarning ehtiyojlariga mos tizim va xizmatlarni takomillashtirish.

5. Qizlarni qo'llab-quvvatlashni sarmoyalash [15].

Xalqaro ayollar tadqiqotlari markazi ICRW- tomonidan voyaga yetmaganlar nikohini kechiktirish yoki uning oldini olish bo'yicha quyidagi 5 ta strategiya belgilangan:

1. Axborot ko'nikma va qo'llab-quvvatlash tarmoqlari bilan qizlarga vakolat berish.

2. Qizlar, ularning oilalarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

3. Ota-ona jamiyat a'zolarini o'qitish hamda birlashtirish.

4. Qizlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

5. Qo'llab-quvvatlovchi qonunlar va siyosatni rag'batlantirish [16].

Shu nuqtai nazardan quyida jinsiy tajovuz to'g'risida shakllanib qolgan 5 ta noto'g'ri tushuncha, ya'ni stereotiplarni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. Ko'plab jinsiy tajovuz holatlari begona kishilar tomonidan amalga oshiriladi.

OAVdagi xabarlarining aksariyatida qurbon ayollar qorong'i tunda ko'chadagi qandaydir begona tomonidan zo'rlangani haqida hikoya qilingan bo'ladi. Biroq, aslida, jinsiy tajovuz ko'p holatda qurbonning o'z uyida biror yaqin shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Angliya, Uels va Avstraliyada har beshinchi ayol hayotida bir marta bo'lsa-da, shunday jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lishi aniqlangan. AQSHda ham ayollar bo'yicha shunga o'xshash ma'lumot mavjud. Buyuk Britaniyadagi mavjud vaziyat bo'yicha ma'ulmotlardan ayon bo'lishicha, zo'rash va jiddiyroq jinsiy zo'ravonlikning atigi 10 %igina begona shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Zo'ravonlik xolatlarining 56 %i qurbonning turmush o'rtog'i yoki birga yashaydigan kishisi, 33 %i esa do'st, tanishi yoki oila a'zosi qo'li bilan sodir etiladi.

2. Haqiqatdan ham jinsiy tajovuzga uchragan jabrlangan bu haqida kimgadir daxldor xabar beradi. Zo'ravonlik holatlarining aksarida qurbon tajovuzkorni taniydi. Ma'lumotlarga ko'ra, Buyuk Britaniyada sodir bo'lgan jinsiy tajovuz holatlarining 46 %i haqida jinoyat kunining o'zida xabar qilingan bo'lsa, 14 %i holatning yuzaga chiqishiga qadar oradan 6 oydan ko'proq vaqt o'tgan. Agar qurbon voyaga yetmagan shaxs bo'lsa, u holda bunday holatlarning oshkor bo'lishi uchun yanada ko'proq vaqt talab etiladi. Jinsiy tajovuzga uchragan 16 yoshdan kichik qurbonlarning 28 %i bu haqda o'sha kunining o'zidayoq xabar bergan, uchdan bir qismi voqea to'g'risida 6 oydan ziyod vaqt sukut saqlagan [17, – C.34].

3. Agar zo'ravonlik holati haqida zudlik bilan xabar berilsa, ishni tergov qilish va zo'ravonga ayblov e'lon qilish osonlashadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra Buyuk Britaniyada zo'ravonlik jinoyati sodir etilganda, zo'ravonlik jinoyati sodir etilgan kunning o'zidayoq xabar berilgan jinsiy tajovuz holatlarining 26 %ida kimdir javobgarlikka tortilganini namoyon etadi. 14 %i holatda esa ish bir yoki bir necha kundan so'ng dalillar yetishmasligi sababli yopilgan.

Bundan tashqari, tajovuz haqida o'sha kunning o'zidayoq xabar bergan shaxslarning hammasi ham qurbon bo'lib chiqmaydi, balki kimning qamalishi uchun shu bahona o'ylab topilgan bo'ladi. Masalan, AQSHda xabar qilingan jinsiy tajovuz xolatlarining atigi 18 %ida kimdir hibsga olingan va 2 %idagina gimondor jazoga tortilgan.

4. Agar qurbon zo'rlanishni rostan istamasa, unda zo'ravonga kuchi boricha qarshi turishi lozim.

AQSH politsiyasi ixtiyorida 274 ta holat bo'yicha mavjud ma'lumotlardan qurbonlarning 22 %igina zo'ravonga urish yoki chinqirish orqali qarshilik qilishga intilgani aniqlangan. Qurbonlarning katta qismi – 56 %i esa o'tinish va yolvorish orqali zo'ravonning “ko'nglini yumshatish”ga uringan [18, – C.35].

XULOSA

Yangi O‘zbekistonda oila milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an’analar va udumlarning jamiyat rivoji va oila barqarorligiga xizmat qiluvchi jihatlarini ilg‘or, insoniyat taraqqiyotiga aloqador an’analar bilan uyg‘unlashtiruvchi tabiiy makondir;

Mamlakatimizda oila insonparvarlik va demokratiya tamoyillarining tom ma’noda jamiyatda ustuvor bo‘lishi va har bir jamiyat a’zosi bo‘lgan fuqaro tomonidan ongli tarzda idrok qilinishi uchun tom ma’noda ma’rifat maktabini o‘ynaydi;

Yangi O‘zbekistonda oila umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlanishi uchun ma’naviy qo‘rg‘on rolini o‘ynaydigan ijtimoiy institutga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekistonda oila har bir fuqaroning kuch va iqtidorini o‘z halol va safarbar mehnati orqali ro‘zg‘orning iqtisodiy takomilini ta’minlash, shu orqali jamiyatda ishlab chiqarish kuchlarining samaradorligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Oila iqtisodini barqarorlashtirishda oilaviy tadbirkorlik, ijara, oilaviy ishlab chiqarish, xususan, kasanachilik shakllaridan oqilona foydalanish orqali va oila byudjetini yaxshilash, turmush tarzini farovonlanish uchun zamonaviy texnika va texnologiyalardan unumli va o‘rindi foydalanish davr talabiga aylandi.

Mamlakatimizda fuqarolarni yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali inson huquq va erkinliklariga ongli munosabatni ta’minlash, bunda milliy, umuminsoniy va demokratik tamoyillar ma’no-mohiyatini yetkazish dolzarb masalalardan biridir.

Oilada o‘z intellektual, aql-zakovat va iqtidori bilan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanish orqali innovatsion texnologiyalar oila barqarorligiga yo‘naltirish, ijodiy muhitni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Lantz Y., Shultz M., Ohara M. The changing American family from the preindustrial to the industrial period: a final report // American review, 42, 1977.
2. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 25.12.2023 й., 06/23/209/0966-сон).
3. Гидденс Э. Социология. –Тошкент: “Шарқ”, 2002. – 459 б.
4. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган.
5. Каримова В. Оила психологияси. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2008. – Б.126-127.
6. Каримова В. Оила психологияси. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2008. – Б.5.
7. Демографический энциклопедический словарь. Москва: “Статистика”, 1985. – С.39.
8. Stress and the Familie. Vol.1. Coping with Normative Transitions /Ed. By Н.І.МсCubbing and C/R/Figle/Brunner. – New York: Mazel publishers. 1983. – P.154.
9. Stress and the Familie. Vol.1. Coping with Normative Transitions /Ed. By Н.І.МсCubbing and C/R/Figle/Brunner. – New York: Mazel publishers. 1983. – P.157.
10. Постылякова Ю.В. Ресурсный подход в изучении семейного стресса // Псих.проблемы современной российской семьи. В 2-х. Ч.1. – М., 2003. – С.69-72.
11. Bodenmann G.Die Bedeutung von Stress fur die Familienentwicklung. – Gottingen: Hogrefe.2000. – P. 69.
12. Обухова Л.Ф. Детская психология: теория, факты, проблемы. – М: “Тривола”. 1995. –С. 13-22.
13. Stress and the Familie. Vol.1. Coping with Normative Transitions /Ed. By Н.І.МсCubbing and C/R/Figle/Brunner. – New York:Mazel publishers 1983. – P.99.
14. <https://www.girlsnotbrides/org/> маълумотлари асосида таҳлил қилинди.
15. <https://www.unicef.org/rosa/what-we-do/protection/child-marriage>
16. <https://www.Icw.org/rosa/issues/child-marriage>

-
17. Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган хотин-қизларга психологик ёрдам кўрсатиш.
– Тошкент: “Маҳалла ва оила”, 2022. – Б.34.
 18. Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган хотин-қизларга психологик ёрдам кўрсатиш.
– Тошкент: “Маҳалла ва оила”, 2022. – Б.35.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000